

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI**

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI MADANIYAT VAZIRLIGI

O‘ZBEKISTON DAVLAT KONSERVATORIYASI

**“Tasdiqlayman”
O‘zDK rektori**


« » * 2020 yil

**“Kelishildi”
O‘zbekiston Respublikasi
madaniyat vazirligi**


« » 2020 yil

**IJODIY (KASBIY) IMTIHONLAR DASTURI
VA BAHOLASH MEZONI**

**5111002 – Professional ta‘lim: Vokal san‘ati (turlari bo‘yicha) ta‘lim
yo‘nalishi uchun**

Toshkent – 2020 yil

Kirish

Ixtisoslik fanidan ijodiy imtihonlarda qatnashmagan abituriyentlar keyingi sinovlarga kiritilmaydi ta'lim yo'nalishi bo'yicha ijodiy imtihon dasturi abituriyentlarning amaliy ko'nikma va malakalarini aniqlash uchun mo'ljallangan. Ushbu ta'lim yo'nalishi bo'yicha hujjat topshirgan abituriyentlar musiqiy asar kuylash borasida ish bajaradilar. Bajariladigan vazifalar tasdiqlangan mezon asosida baholanadi.

Fanning maqsadi va vazifalari

5111002 – Professional ta'lim: Vokal san'ati (turlari bo'yicha) ta'lim yo'nalishi bo'yicha ijodiy imtihon dasturi abituriyentlarning amaliy ijrochilik ko'nikma va malakalarini aniqlash maqsadida o'tkaziladi.

Abituriyentlarning umumiy tayyorgarlik darajasi, qobiliyati, iqtidori, bilimi, dunyoqarashi va aql zakovati hisobga olingan tarzda me'yoriy dasturni o'zlashtirish ustida ish olib boriladi.

Vokal san'ati (turlari bo'yicha) fanini o'zlashtirishdan kelib chiqadigan vazifalar - abituriyentlar turli yo'nalishlarda bilimlarga ega bo'lganliklarini o'zlarining ijro mahoratini namoyish etishlaridan iboratdir. Alohida e'tibor professional darajali ijroni mukammallashtirishga, uni yuqori badiiy saviyada ko'rsatib berishga qaratilishi kerak. "Vokal san'ati (turlari bo'yicha)" fani yuzasidan abituriyent davr talabiga binoan dunyoqarashi keng bo'lgan, ya'ni insoniyat madaniyati tarixi, rivojlanish pog'onalari xususan, adabiyot va san'at sohasida teran fikr yuritish bilan birga, yangi paydo bo'lgan kompyuterlar tizimidagi jahon musiqiy dasturlari yuzasidan ham tushuncha, tasavvur, bilim va ko'nikmalarga ega bo'lishi shart.

Abituriyent bilimiga qo'yiladigan talablar

5111002-Professional ta'lim: Vokal san'ati (turlari bo'yicha) ta'lim yo'nalishi bo'yicha o'qishga kirayotgan abituriyentlarni saralash maqsadida sinfda kirish talablariga mos dasturlarni ijro etib berishi ko'zda tutilgan.

O'qishga kiruvchi 30 daqiqagacha bo'lgan vaqt mobaynida ijro dasturi (yirik shakl, jahon musiqasidan namuna, mahoratli asar)ni ijro etib berishi, 15 daqiqagacha vaqt mobaynida kollokvium topshirishi talab etiladi.

Kiruvchi abituriyent komissiyaga quyidagi asarlarni taqdim qilish kerak:

- 2 ta klassik ariya;
- romans;
- xalq qo'shig'i.

ijro dasturi

5111002-Professional ta'lim: Vokal san'ati (turlari bo'yicha) ta'lim yo'nalishiga ariza topshirgan barcha abituriyentlar belgilangan ro'yxat asosida

tanlagan yo'nalishi bo'yicha yakka tarzda, tayyorlangan dasturni fortepiano va an'anaviy ansambl jo'rligida yoddan kuylashadi.

Abiturient asarlar nota matnini xatosiz, asarning sur'atini ko'rsatilgan tezlikda, kuy shtrixlarini to'g'ri qo'llagan holda, intonatsiya sofligiga amal qilib, barcha artikulyatsiya talablarini bajarib, shuningdek, asarni badiiy mohiyati va milliy xususiyatlarini to'liq ochib bergan holatda kuylab berishi zarur. Asarda musiqiy ifoda vositalarining qo'llanishi, tovush kuchi va uni boshqarish, hamda uning sifati asosiy ahamiyatga ega.

Kollokvium

Kollokvium savol-javoblari:

a) ijro dasturiga oid savollar: (asarning shakl jihatidan tahlili, muallifi, yaratilgan davri va ijro yo'nalishi, ijroning badiiy xususiyatlari v.h);

b) o'rta maxsus ta'limning umumiy kursi darajasida elementar musiqa nazariyasi, cholg'ushunoslik, musiqa adabiyotidan bilimlarni;

v) shakl va garmoniya nuqtai nazaridan kichik hajmdagi - sonatina, romans, kuy va b. asarlarni tahlil qilish qobiliyati kabilarni o'z ichiga oladi;

g) notadan o'qish ko'nikmasi.

Shuningdek, kollokviumda abiturientning topshirgan yo'nalishlari bo'yicha musiqa san'ati va boshqa san'at turlaridan, o'zbek va chet el musiqasida ma'lum va mashhur asarlar, zamonaviy an'analar haqidagi bilim darajasi qanday ekanligi bilib olinadi.

Ijodiy imtihon abiturient tomonidan bajariladigan amaliy ish quyidagi mezon asosida baholanadi:

1. ijro dasturi

№	Ijro talablari	To'liq javob uchun ball
1.	Asar nota matnining to'g'riligi	10,0
2.	Tovush sifati va uni boshqarish	7,0
3.	Applikaturaning qo'llanishi	7,0
4.	Sahna madaniyati	7,0
5.	Artikulyatsiya talablarining bajarilishi	7,0
6.	Musiqiy ifoda vositalarining to'g'ri qo'llanishi	7,0
7.	Shtrix va dinamik belgilarning ishlatilishi	7,0
8.	Intonatsiya sofligi	7,0
9.	Asar xususiyatini ochib berilishi	7,0
10.	Sur'atning to'g'ri tanlanishi	7,0

Ijro dasturi bo'yicha to'plash mumkin bo'lgan maksimal ball – **73,0 ball**

2.Kollokvium

№	Savollar mazmuni	To'liq javob uchun ball
1.	Asarga oid savollar	3,0

2.	Musiqa nazariyasi bo'yicha savollar	3,0
3.	Musiqiy cholg'ular bo'yicha savollar	3,0
4.	Musiqa adabiyoti bo'yicha savollar	3,0
5.	Notani o'qish ko'nikmasi	3,0
6.	Asarning shakl nuqtai nazaridan tahlili	4,0
7.	Notadan o'qish ko'nikmasi	4,0

Kollokvium bo'yicha to'plash mumkin bo'lgan maksimal ball – **23,0 ball**

Bu ishlarni baholash quyidagi tartibda amalga oshiriladi: ijro dasturi – **73,0 ball**, kollokvium – **23,0 ball**. **Jami-96 ball.**

“Solfedjio” fanidan

Fanning maqsadi va vazifalari

“Solfedjio” fanidan sinovlar dasturining asosiy maqsadi – barcha ixtisosliklar uchun musiqiy eshitishni rivojlantirish va kasbiy tayyorlanishda eng muhim predmetlardan hisoblanadi. Musiqiy eshitish darajasining yuqoriligi, kuylash malakasi va musiqiy xotirani kuchliligi xonanda va dirijyorlarni tarbiyalashda katta ahamiyatga egadir.

Fanni o'zlashtirishdan kelib chiqadigan vazifalar - abituriyentlar turli yo'nalishlarda bilimlarga ega bo'lganliklarini namoyish etishlaridan iboratdir. Solfedjio fani bo'yicha talabalar o'rganilayotgan materialning qaysi millatga taalluqli bo'lishidan qat'iy nazar musiqiy eshitish, xotirani har tomonlama rivojlantirish, kuylash va tinglash jarayonida tovush tozaligini nazorat qilish kabi tasavvur, tushuncha va bilimlarga ega bo'lishi lozim.

Abituriyent bilimiga qo'yiladigan talablar

Abituriyent “Solfedjio” fanidan o'quv dasturi doirasida to'laqonli bilimga ega bo'lgan holda, yozma ish (diktant)ni xatosiz bajarganda, musiqiy-nazariy qonuniyatlarni tahlil qilish, musiqiy-nazariy va amaliy ko'nikmalarini namoyish qilganda, shuningdek, fan bo'yicha bilimlari yuqori badiiy darajada bo'lganida qo'yiladi. Talabaning musiqa nazariyasini bilish qobiliyati yorqin namoyon bo'lishi kerak.

Kasbiy (ijodiy) imtixonida abituriyent tomonidan bajarilgan amaliy ish quyidagi mezon asosida baholanadi: OG'ZAKI:

1. Berilgan tovushdan tuzish va kuylash :
 - a) major, minor va xalq musiqasidagi ladlari;
 - b) ko'rsatilgan diatonik va xromatik intervallar;

- c) akkordlar;
2. Xalq musiqasidagi ladlar, diatonik, xromatik intervallar va akkordlarni eshitib aniqlash.

OG'ZAKI SAVOL-JAVOB BO'YICHA BALLARNI TAQSIMLANISHI:

№	Savollar mazmuni	To'liq javob uchun ball
1.	Berilgan tovushdan tuzish va kuylash :	
	a) major, minor va xalq musiqasidagi lادلari;	21,0
	b) ko'rsatilgan diatonik va xromatik intervallar;	24,0
	c) akkordlar;	24,0
2.	Xalq musiqasidagi ladlar, diatonik, xromatik intervallar va akkordlarni eshitib aniqlash.	24,0
Jami		93,0

Solfedjio fani uchun qo'yiladigan maksimal ball – 93,0 ball.

Mazkur ta'lim yo'nalishida kasbiy (ijodiy) imtihonlarga jami qo'yiladigan maksimal ball – 189,0 ball.

Ijodiy imtihonni o'tkazish tartibi

5111002 – Professional ta'lim: Vokal san'ati (turlari bo'yicha) ta'lim yo'nalishiga hujjat topshirgan abituriyent jadval asosida ijodiy imtihon topshiradi. Imtihonlar yakka tartibda Qabul komissiyasi tomonidan belgilangan auditoriyalarda o'tkaziladi.

Ijodiy ishni qabul qiladigan komissiya abituriyentdan ijro dasturi bo'yicha imtihonni qabul qilib oladi, kollokvium o'tkazadi.

Appelyatsiya tartibi

Abituriyentlar tomonidan kasbiy (ijodiy) imtihon natijalari bo'yicha konservatoriya qabul komissiyasining apellyatsiyalar bilan ishlash hay'atiga natijalar e'lon qilingandan kundan boshlab 24 soat davomida murojaat qilishlari mumkin. Murojaat mazmunida faqat o'zining ballari haqida bo'lsa qabul qilinadi, lekin boshqa abituriyentlar haqida yozilgan shikoyat arizalari qabul qilinmaydi.